

Sobir abdulla

O'zbek xalqining sevimli shoiri –demokrat Muxammad Amin xo'ja Muqimiyning xayoti va ijodiy faoliyatidan olib yozilgan 4 parda, 6 ko'rinishlik tarixiy drama.

MUQIMIY

(qayta ishlangan yangi variant)

Musiqqa mualliflari: O'zbekiston Xalq artisti, kompozitor To'xtasin Jalilov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor A.G. Mushel.

Muqimiy nomidagi Respublika muzdrama va komediya teatri

Asarda ishtirok etadilar:

1. Muxammad Amin – Muqimiy - Asar qaxramoni – shoir demokrat
2. Zokirjon – Furqat – shoir demokrat
3. Stepan Kuzmich – Surgun bo'lga vrach.
4. Bozorboy – meshkobchi.
5. Obidjon (Obidcha) – Shoirning do'sti, adabiyotshunos.
6. Muxammadjon (Makay) – Shoirning bastakor va yallachi do'sti.
7. Gofirjon - Shoirning yallachi do'sti. Kosib.
8. Isroil ota (Isroilkusa) – gaychi ustoz-san'atkor.
9. Risolatchev - Ubaydullaning onasi, chevar.
10. Ubaydulla (Zavkiy) - Muqimiyning shogirdi kosib shoir
11. Obidaxon (Ofarin) - Muqimiyning shogirdi va sevgilisi.
12. Maxkam polvon – Muqimiyning kam yer, chorakor do'sti.
13. Mulla Abdulla – Muqimiyning xamxujra do'sti.
14. Askarali - Muxsining xamxujrasi keyincha Muqimiy xajvlarini o'quvchi Muqimiy do'stlaridan.

15. Tojiniso – Ubaydullaning xotini ,kelinchak.
16. Xoji Muxsin (Mux'yo) – Mutavalli artist okrat shoir
17. To'raxon dodgox – Shaxar mingboshisi, chinovnik.
18. Ashurboy – Pomeschchik ham katta savdogar
19. Sultonxo'ja – Tanobchi .
20. Xakimjon -Tanobchi.
21. Niyoz – Mirshab
22. Nomoz-Mirshab.
23. Dexqon chol – Kambag'al dexqon – xalq.
24. Magrifatxon – To'yga kelgan qizlardan.

BIRINCHI PARDA

BIRINCHI KO'RINISH

Kukon.1895 yil.Qish ,qor yog'moqda .yo'l, ko'cha .Bu ko'cha serqatnov bekvachcha maxallasi bo'lib ,yo'l chetida bir kishi yolg'iz o'tirib ,nayda navo mashq qilayotga edi.Ikki bola ergashritgan bir paranjilik xotin kelib to'xtadi.Bolalari naychi oldida yozilgan ro'moldagi nonga intildilar .naychi nay mashqini to'xtatib,yonidan non olib ,bolalarga berdi.Xotin bolalarni ergashtirib,uvoklashar ekan, naychi Ismoilkosa qarab qolib,o'rnidan turdi.Va shul'a sochib turgan darparda tomonga yurdi.Muqimiy xujrsi yorishdi. Bu yerda Zokirjon-Furqat,Kuzmich Xakim ,Muxammad Amin xo'ja Muqimiy ,Mulla Abdulla ,Obidja a'lam, Muxammadjon Makay,Gofirjon ,Bozor meshkobchi va mulla Askar ultirib , qizgin suxbatlashmoqdalar. Ismoilkosa esa ,uchoq yonida o'zini o'tga toblab suxbatga quloq solmoqda.

Avval kujardagilar o'tadilar.Prologda uqiladi)

(Ariya)

BIRINCHI KO'RINISH

Kuzmich -Juda ko'p gazlama fabrikalarining xo'jayini bo'lmish Zaxar Marozov o'z qo'l ostidagi ishchilarga jarima solshni rasm qilib ,bir sum ish xaqqidan 30 tiyindan tortib 50 tiyingacha tutib qola boshladi.Ishchilar bu

adolatsizlikka bardosh berolmay oxiri ish tashlash e'lon qildilar. Morozov fabrikasida ish to'xtadi.

Ismoilkosa- Boplashibti.

Bozorboy –Keyin nima bo'ldi.

Kuzmich –xo'jayinga yordamga podsho askarlari keldi.

Olti yuzdan ortiqroq ishhilarni tuti turmalarga tashladilar.otdilar.Yarador qildilar.

Furqat -ximmdaxshat....

Muqimiy –Davom eting xakim...

Kuzmich –Do'stlardan biri meni yarim kechala uzoq xilvat ko'chadagi yerto'laga olib bordi.

Yer to'lada o'ttiztaga yaqin ish tashlashga boshchilik qilgan yarador ishchilar yashiringan edilar ,men ularni davolashga kirishib ,yonlaridan jilmay ularning revolyutsion qo'shiqlariga qo'shildim.

Smelo tovarishi ,v nogu

Duxom okrepnim v borbe

Vstarstvo svobodi dorogu

Grudyu prologijim sebe.

-Ko'p o'tmay ,bu yerdan bizni jandarm qamoqqa olib sud qildi.Ko'pchiligimizni Sibirga va bir nechamizni Turkistonga surgun qilishga hokum chiqardi . Menga shaxaringizni issiq turidan joy berganingiz uchun sizlarga ming raxmat .

Furqat -Siz o'zingiz bilan birga biz uchun dori-yu-darmon olib keldingiz,xurmatli Kuzmich xakim.

Ismoilko'sa –siz notoblarimizga xayot ulashayotibsiz axir...

Muqimiy- mavlono ,qani endi ,dardimizga shu sharobingiz davo bo'lsa edi..

ARIYA

Muxammadjon va Gofirjon:- Ko'nglimni olib e sho'x, devona qilib ketding,Gurbatga meni tashlab ,xamxona qilib ketding.Xolimni so'rab avval,

ko'nglimni ko'nglimni qilib obod, Oxirida bu ko'nglimni vayrona qilib ketding.
O't tushdi quvonchimga qovrildi yurak bag'rim,xijronu-fikrokingda suzano qilib
ketting.Ulkunki qilib mexmon, mastona nigox aylab,Xushumni olib
boshdan,begona qilib ketting.Kirganda salom aylab,olamni qilib ravshan, Dunyoni
Muqimiyga g'amxona qilib ketding.

(Eshikni zarda bilan ochib Xoji Mux'yo kiradi)

Muqimiy –keling, xoji aka.

Furqat - Qani, o'tiring, suxbatlashamiz...

Mux'yo - Bazur o'tirabering, mulla Zokirjon. (Askaraliga xumrayib) Seni,
talkon yeb suvga yuboradigan ekan...

Asqarali - Shirin suxbatni tashlab chiqishga ko'zim qiymadi...

Mux'yo – Astagfurullo. Men senga nima degan edim?

Asqarali - Qasd qilib kirdimu, aytishga og'zim bormadi. Bilasiz-ku xoji aka,
mening yallaga ishqibozligimni...

Mux'yo – Tur o'rningdan.

Asqarali - Xo'p.... (o'rnidan turdi)

Muqimiy - Qo'ying xoji aka, xujraga keyinroq chiqar.Qani o'zing iz ham
o'tiring , birga suxbatlashaylik.

Mux'yo - (Asqarga). Xujraga chiq . (Asqarali chiqib ketadi)

Muqimiy - Ajoyi qissangiz , sarguzashtingiz bilan bizlar rus ishchilarining
og'ir hayot kechirishlaridan qisman voqef bo'lgan bo'ldik .toroziga solib
ko'rsangiz xurmatli xakim o'zbekning qashshoq kosibi kambag'al ersiz dehqoni (
Gofirjon va Maxkam polvonni ko'rsatib)

Mana jonlik shoxidlar.

Ismoilko'sa - o'zingizchi.O'zingizni aytmaysizmi? Xalqimizni sevgan
shoirisizku -beminnat oyoq uzatadigan bir parcha xovliga ega emassiz.

Muqimiy - O'zingizni olib qarang .Xurmatli Mextar . Xalqning sevgan
san'atkorisiz-ku mudom yelkangizdan xurjun tushmaydi.

Ismoilko'sa - Xurjun ham har xil bo'ladi. Oltin to'ldirilgan xurjun ham bor,
non burda to'ldirilgan xurjun ham bor.

Furqat - Xar holda Ismoil akaning ishlari xurjun . (Kulgi).

Ismoil - Ko'p xurjunga osilavermang. Mulla Zokirjon uka.Bola chaqaning risqi bu.

Polon - Mumkin bo'lsa xurjun navbatini menga bersangiz .Men ham umid bilan Yangi –qo'rg'ondan xurjunlik kelgan edim. (Xurjunni o'rtaga oldi).

Furqat - Xurjun deb mo'jizani ko'tarib kelganga o'xshaysiz.

Muqimiy - Karomat xaltasini eshitgan ediku, karomat xurjunini ko'rmagan edik.

Muxammadjon - Qo'l bola sharobga o'xshab qoldi.

Polvon - Sog – omon diydor ko'rishganimiz uchun mulla Zokirjon aka o'zizgiz korgan charosning sharobi.

Furqat - Mana dardlariga davo bo'ladi, mavlono Muqimiy. Shoir emas , bir nozik tabib sifatida qabul qiling azizim.(Muqimiyga). Muqaddas madrasaga mashshoq to'plab ,gayri din (Kuzimichga qarab qo'yib). Mexmonlar chiqarib , xangoma qilishni nima desa bo'ladi. Mavlono Muqimiy.

Furqat - Bu madrasaning mutavvalisi shoir Mux'yo bo'lishiga suyanib, jasorat qilingan bo'lsa-chi.

Mux'yo - Men mutavalliman. Biroq , jo'rboshi emasman . (Muqimiyga) Xar qanday qadamlardan popk tutilishi lozim va lobid bo'lgan muqaddas ostonaning bu qadar oyoqosti bo'lishiga men yo'l qo'ymayman.

Muqimiy - (asabiylanib). Siz pok deb bilgan qalb va qadamlardan bu yerda bo'lgan qalbu – qadamlar pokizaroqdir, xoji afandim...

Mux'yo - (Titrab). Bunday so'zlarni aytishga qanday jur'at qiloldingiz . Agar siz uchun mening e'tiborim bo'lmasa, biz bilan ulug' xazratning o'zlari gaplashadilar. (Eshikni qattiq yopib,chiqib ketdi. Suxbatga bir oz sukunat chiqdi).

Furqat – Faqatgina shu zot e'tiborlik bo'lsa-yu...Xa, attang. Andalib vayronada, boyqushga bog' bo'lmish vatan, Baski, furqat ne taajjub, daxr aro shul bo'lsa fan... Bu bedodlar dastidan, furqatligim o'z ifodasini topmagay deb, qo'rqaman.Bu odamni ma'rifat , adolat olib keldi deb, bizga yanglish tanitgan ekanlar.Xolbuki ,bu janob, uzi bilan jaxolat –adovat olib kelgan ekan.

Kuzmich - Bu odamni oldin ko'rmagan , ekanman.

Furqat - Ko'rmaganingiz tuzuk. (Og'ir nafas bilan) .Sizning oldingizda bizni yerga qaratdi. Kungli qora, dilozor kishi.

Muqimiy –Xujra eshigini ichidan zanjirlab o'tirsak ham bu dilozorlar devol kavaklaridan kirib,o'z zaxarli nashtarini sancha beradilar.

Polvon – Siz xujrani aytasiz mulla aka.bu dilozorlar bizni keng dalada kuvib yurib ,nashtarini sanchadi ,shahardan yo'rga minib chiki sanchadi . Xali aytmoqchi edim, aytishning payti endi keldi, Ashurboyning Yangi kurgonda yuz tanobdan mul yeri bula turib , ozgina qarzim uchun qoziga chaqirtirib o'tgan kuni ikki tanob erimni o'tkazib oldi. Mana ozor, mana xaqsizlik.Ex, zangar! (Eshikni asta ochib Asqarqli lirib keldi).

Asqarali - Assalomu alayku ... (utirdi).

Furqat - Mulla Asqarali uka.Vayron bo'lgan tansik suxbatimiz asta-sekin qayta tiklanayotganda , janob mutavvaliga kerak bo'lib qolmasmikansiz deb, qo'rqaman...

Asqarali – Qo'rqmasinlar , mulla aka. Turaxon dodhonning ikkita ota ot qo'shilgan izvoshi kelib olib ketti. Tuf dedimu qaytib keldim. (O'rnidan turib Furqatga qullik qildi).Udarga qanday tuf deyishni o'zingizdan o'rganganman ,xurmatli Zokirjon aka. Ey, Kukon bayonlari sizlardek insonlarga tuf Taltayib izvoshda yurgan davri davronlarga tuf. Sizni irgitgan Zaxarov ham Graf boylarniki , Boshqalar moli bilan xovliqma nodonlarga tuf.Xatmi, xo'ja, to'y qilursiz mullalar, boylar uchun, Kambag'allar och-yalong'och qorni yo'gonlarga tuf. Furqato boylarning xajvini qancha yozsang shuncha oz Rost erur bu so'zlarim , ul so'zi yolg'onlarga tuf.

Ismoilko'sa - Qoyil, mulla Zokirjon uka.Toshkentga jo'nash oldida boplab tuflagansiz.

Bozorboy - Xa shunday, o'sha ozor egalarining yuzlariga yaxshi tufirishgan.

Kuzmich -Yaxshi jasorat qilibsiz.

Obidcha - Xurmatli xakim. O'sha yuziga tufirilgan kishilarning basharalarini, xurmatli Muqimiy xajvlarida ko'rsak degan ishtiyoq bor...

(Xamma Muqimiyga qaradi , Muqimiy nozik ta'zimdan so'ng juzgirdan she'r oldi).

Abdulla - Xuqandga shirkat bankasi ochib, foyda berish va'dasi bilan fonning tama' sutxo'rlarning sarmoyalarini yig'ib olgandan keyin , bir kechada zim-g'oyib bo'lgan.Viktor nomli bir german tovlamachi bayonida.

Kuz'mich- (Zavqlanib). A... Nemis banker.

Furqat - Eshitamiz.

Muqimiy - "Qayerdan aslingu pul birla ketding san qayon,Viktor ,Na bo'lsa bo'ldi, ammo boplading soxibqiron Viktor Karim dallol pir aylab etegingdan Chunon ham ushladilar xovliqib, qurg'ur eshon Viktor. Yemay –ichmay uzatdi barcha boylar xomtama'likdan Iloji bo'lsa, berkit, bir tiyin ham berma, jon Viktor

(Kuz'michni olib chiqib ketadilar, Bozorboyni ham birga olib ketadilar.Qolganlar ergashib chiqadilar).

PARDA

(Kuz'michni olib chiqib ketadilar, Bozorboyni ham birga olib ketadilar.Qolganlar ergashib chiqadilar).

PARDA

IKKINCHI KO'RINISH

(SHoir Xoji Mux'yoning boy jixozli naqshdor xujrasi. Parda ochilganda, qalamini da'vatga suyab, yozganini shavq bilan o'qiy boshladi.)

Mux'yo - Dodxoxim sipok yor o'lsin

Baxtu- davlat barqaror bo'lsin

Chor arkon, shar'u-xonayi din

Adl mu'minla usti bort ulsin.

(Risolat chevar paranjida kelib ,eshikni chertadi)

Marxamat..... Xo'sh... .Marxamat.

Risolat - Assalomu alaykum , xojim...

Mux'yo- Vaalaykum Xo'sh xizmat?

Risolat - Risolatchevar deb eshitganlari bordir xojim.

Mux'yo - Xayr...

Risolat - Bir savob ish vajidan sizga maslahatga kelgan edim.

Mux'yo- Bosh ustiga.

Risolat - Vofurushlik rastasiing oqsoqoli usta Olimjon dexqonni tanirsiz. Xa, xojim.

Mux'you - Nega tanimay, Usta Olim axli salox, oily ximmat shaxarda taniglik kishiku. Xo'sh nima edi?

Risolat - Men Usta Olimjonning ko'z ochib ko'rgan xotiniman.

Menga uylanganda bir ustakorga xalfa edi .Omadi kori kelib ustako bo'ldi, yigirmalab xalfalariga ovqat pishirib xizmatini qildim, lekin...

Mux'yo - Davom eiting, chevar, davom eting...

Risolat - Davlatmand bo'lib bozorga oqsoqol ham bo'ldi.

Mux'yo - Voy, chevar tushkurey. Bo'lsa yomon bo'libdimi?

Risolat - Ustimga xotin olgandan keyin men bunga chidamay otamdan qolgan hovliga ko'chib ketdim.

Mux'yo - Farzand yo'qmidi?

Risolat - Nega bo'lmasin, farzand bor bo'lganda ham bir dunyoga arziydigan qizim bor edi.Sen tarbiya qilolmqysan degan baxona bilan qizimni mendan ajratib olib qoldi.

Mux'yo - keyin qiz nima bo'ldi?

Risolat - Xamma gap shu qiz ustida aylanay, xojim. Qizni uqitdi. Men bunga xursandman. Qizim uqib yaxshigina shoir bo'lgan. Ubaydulla akasi uning she'rlarini Muqimiy domlaga olib borib, ko'rsatgan ekan, Muqimiy domlaga qizim obidaning she'rlari manzur bo'lib unga Ofarin degan taxallus qo'yibdilar .

Mux'yo- Ofarin! Yaxshi . Qani davom eting.

Risolat – Siz bir narsa desangiz, otasi so'z qaytarmasligiga aqlim yetib , sizning yoningizga kelgan edim. Muqimiyga otalik, to'ylariga o'zingiz bosh bo'lsangiz.

Men Muqimiydan mol-dunyo, uy-joy talab qilmayman. Yakkayu – yagona qizimni baxtli bo'lishini istayman. Sizdan yashiradigan sir yo'q. Sezishimcha qizimning ko'ngli Muxammad Amin Xo'ja Muqimiyda emish.

Mux'yo - Balki mavlono Muqimiyning ham qizingizga ko'ngli border. Nima dedingiz chevar. Agar shunday bo'lsa, o'rtada dadilroq turib, to'y qilib yuborar edik. A, labbay?

Risolat – Shunday hojim.

Mux'yo- Unday bo'lsa, bunna bosh qo'shmay nimaga bosh qo'shaman.

Ichkuyov qilib olaqolasiz. Chevare tushmagur. O'ylab yuborgan muddao o'zi shu edi. Usta Olimjon izmimdan chiqmaydi. Ertagayoq sovchilikka boraman. Men bilan bitmasa, yurtning ulug'larini aralashtiramiz. Xo'pmi?

Risolat - Iloyim obro'yingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, Men ketaqolay.

Mux'yo - Mayli. Siz bu tomonidan xotirjam bo'lavering.

Risolat - Xa, aytgancha, o'zlariga atab kelinimga tiktirgan edim. Tuniga qarzdorman.

Mux'yo - Ey, xojati yo'q edi-ku, xa, mayli. Xudo xoxlasa qizingizni to'yida, menga qora beqasamdan guppi tun kiydirasiz.

Risolat - Bo'lmasam-chi aylanay.

Mux'yo - Iloxi omin, to'y ustiga to'ylar bo'lsin. Omin obloxu akbar. (Risolat chiqib ketadi) Ey, soddaliginga ofarin. Menga mana shu kerak bo'lib turgan edi. Muqimiy mana endi qo'limga tushding-Muqimiy. Keling boy, assalomu alaykum.

Ashurboy - (kirib) Vaalaykum assalom. Xojim xujradan bir ayol chiqib ketayaptimi? Tushunolmadim sizga, Tushunomadim sizga, xoji afandim.

Mux'yo - Qani, xujraga marxamat.

Ashurboy - Sizni topib bo'lmaydi. Kecha kechasi Ovg'onboyning mexmonxonalarida edik. Boyning o'g'illari izvosh bilan kelib topolmay bordi.

Mux'yo - Biz kecha, To'raxon Maksim domla bilan katta xazratning dargoxlarida xizmatda bo'ldik. Xabaringiz bordur. Tataristondan Kukonga Abdurashid qozi mexmon bo'lib kelgan- di. U, oily zot kela solib, kaminani yo'qlatganlar. Xo'sh, boy, xayoli parishonroq ko'rinasiz?

Ashurboy - Do'konni ochiq tashlab, bevaqt kelishimning va'ji bor. Meni Muqimiy xajv qilgan emish.

Mux'yo – Ablax.

Ashurboy - Tovushingizni chiqarib o'qing.

Mux'yo - To'rt qo'lin og'ziga soldi, tuymagur qurg'ur Ashur,

Taltayib chit rastasida o'ziga manzur Ashur.

Goxi boshda katta dastkor birla jomi saxnida

Goxi kun mayxonada mastlikda ul mashxur Ashur.

Gox minib yo'rga chiqar qishloqda pul undirgani

Goxi ishratxonada boyvachchalardan zo'r Ashur,

Pora bilan oldi bir qashshoq yerini qaxshatib,

Muttaxam makkor, tulki, navbakoru sur Ashur.

Ey, Muqimiy yozma xayf yozmoqqa boylar xajvini

Xammaga fe'li ayon mashxur Xoji kur Ashur.

Ashurboy - Ko'rdingizmi?

Mux'yo- Xaddidan oshib ketdi.

Ashurboy - Biz sizning bu shaharning malik shuorosi deb bilamiz. Uning jilovoni siz tortib qo'ymasangiz kim tortadi. Yaqinda xurmatli zavodchi Xodi Xojja eshon pochchani xajv qildi. Mana endi meni. Ertaga o'zingizni, bora-bora dodxonni, keyin borib xazratni xajv qilishdan toymay-di.

Mux'yo- Jilovini tortib qo'yish kerak. Biiroq, bu ish yolg'iz meni qolimdan kelmaydi . Unung nufuzi zo'r, shaxar, qishloqda ko'pchilik oddiy xalq unung ko'cha tilida yozgan qo'shiqlarini kuylaydi axir.

Ashurboy - qo'lingizdan kelmasa menga qo'yib bering. Men to'rtta otabezorini ishga solib, kaltaklatib, shalayim qildirib, tashlay bo'lmasa. . .

Mux'yo - Xay, Xay, boy, zinxor- zinxor.

Ashurboy – Qo'limdan kelmaydi deb o'ylaysizmi?

Mux'yo- Qo'lingizdan keladi. Ammo bu shaharda turishdan umidingiz bormi? Unga muxlis bo'lgan kosiblar bu ishni qilganingizni sezib qolguday bo'lsalar, do'koningizga ut qo'yishadilar. Nima deb o'ltiribsiz. Undan o'ch olish uchun boshqacharoq chora izlash kerak.

Ashurboy- Nima qilish kerak?

Mux'yo - Sabr qiling. Menga ko'nglini yaqin olib, xujrasidan avaxta qilinganlar to'g'risida Dodgoxga iltimos qilishni so'rab kirgan edi. Men ko'ynini puch yong'oqqa to'ldirib chiqarib yubordim. Endi, uni biz pichoqsiz so'yamiz, sirtmoqsiz osamiz. A,labbay.

(Asqarali kiradi)

Asqarali - Keling, boyvochcha.

Mux'yo - Yurt ulug'larining nazaridan qolaversa o'ziga qiyin. Darvoqe nasiya haqidagi iltimosingiz yodingizdami, boy?

Ashurboy - Darvoqe o'sha nima bo'ldi?

Mux'yo - O'sha kunlari mashq qilib qo'ygan edim.

Naqd baxridan guxar paydo bo'lur

Nasiya qaxridan xatar paydo bo'lur.

Nasiya xub ermas ayo axboblar,

Oshnalikka zarar paydo bo'lur.

Ashurboy - Shoirlik bunday bo'ptida.

Mux'yo - Naqd savdodan asal paydo bo'lur.

Nasiya savdodan nasal paydo bo'lur.

Oshnodan ajragaysan oqibat,

O'rtada jangu jadal paydo bo'lur.

Katta qog'ozga yozdirib brtkay yerga yopishtirib qo'ysangiz

Do'kondan nasiya arib ketadi inshoollo.

Ashurboy - Qullik, buni muzdiga bir ziyofat qarzdor bo'ldim.

Mux'yo – Salomatlik bo'lsin. Biz ozor emas, kishilarning ko'nglini olishni yaxshi ko'ramiz.

Endi menga ruxsat berasiz xoji afandim. Xa, aytgandek va'daga muvofiq tunlarni pulini olib kelgan edim. (pul berish)

Mux'yo - (Pulni olib). Kimxob tunlarga ham surra tunlar narxuda pul pichibsizmi?

Ashurboy - Mening tunfurush emasligimni o'zingiz yaxshi bilasiz. Xaridori chiqsa sotilib ketar, Sotilmasa lozimondaga turar. Xovr, tungarchilik yo'q.

Asqarali - Tungarchilik bo'lmasa, yurtida o'lim bo'lib turadi.

O'libtimi, tobutga yopish uchun ham olmasa.

Mux'yo - Jim shakkok. Bu nima beodobgarchilik. Xafa bo'lmang boy. Bizning mulla Asqarali keying vaqtlarda allakimlardan ta'lim olib, betga choparroq chiqib qoldi.

Ashurboy- Qarang endi.

Mux'yo - Biroz qo'shing, boy.

Ashurboy - Xayr, mayli, bizdan ketsa sizga ketsin. (Pul qo'shdi).

Mux'yo - O'ltirsinlar boy. Mulla Asqar osh qilayapti.

Ashurboy - Raxmat. Oshni bafurja yeymiz. Do'kon ochiq qolgan edi.

Mux'yo - Mulla Asqar, mana bu tunlarni boy pochchangni izvoshlariga tashlab kelgin.

Asqarali - Xo'p.

Mux'yo - Derazani nega ochding?

Asqarali - Yog' dog' olguncha ochiq tursin, xoji aka.

Mux'yo - Yopib qo'y. Itni ursang ham Muqimiydan aytadigan bo'lib ketibti.

Asqarali - Ba'zi shoirlarning yozgan ashulasini itni ursang ham aytmaydi.

Mux'yo - Bas, ishingni qil. (Yozganini o'qiydi).

Na'ti rasulu xamdi xudo yozma, yo'q tilak,

Mux'yo ashula yozki, bu el xangragan eshak.

Ma'qulmi?

Asqarali - Xoji aka, rostini aytsam gap xalqning sha'niga aytilgan bunaqa galis bemaza tuxmat she'rini xazm qilolmayman. Xalqni eshakka teng qilibsiz. Xalq xech qachon sizdan buni kutmagan bo'lsa kerak.

Mux'yo - Sen ham o'sha avom xalqning bittasisan. Shuning uchun senga galis botgan bo'lsa kerak.

Asqarali - bitta bu she'ringiz emas. Sizni qaysi kungi ishingiz ham galis botgan bo'lsa kerak.

Mux'yo - Qaysi ishim?

Asqarali – Bir ziyofat, bir tun uchun imoningizni sotib qozixonada yolg'on guvoxlikka o'tib bir kambag'alni xonavayron bo'lishini aytadaysizmi. Sizga osh, joy bergan xalq endi eshshak bo'ldimi? Qarangga. Ana nonko'rliгу.

Mux'yo - Yo'qol, ko'rpa to'shagingni ko'tar. Xujradan chiqib ket.

Asqarali - Ketaman, xoji afandi. Siz bilan istiqomat qilishga tariqcha tobi-toqatim qolmadi.

Mux'yo - O'ylaysanki, Muqimiy menga panox bo'ladi deb, yo'q, avval u, o'ziga panox topsin.

Asqarali - Muqimiyga panox bo'lib, butun xalq turibti. Ammo, sizga qiyin. Omin-obloxu-akbar.

Qilar ishlari elga ma'lum kim.

To'yda to'n kiyish muddaolaring.

Fitnayu Fasod ila til uzun.

Tegdi jonga bu kul balolaring.

Kecha-kunduzi pul yig'ishgami,

Kimki, boy, xushomad yotib unga,

Yutaman degay yurtni, bu dami,

Ulamo degan ajdaxolaring.

Mux'yo - Yo'qol ko'zimdan . . . (Asqarali chiqar ekan, Mux'yoning jazavasi tutib, qo'liga kirgan hamma narsani uning orqasidan otdi, ko'chadan xalq Muqimiy she'rini kuylab utaboshladi, Mux'yo qotganicha qoldi).

QO'SHIQ

Utgunchilar - Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar

Suxbat aylaylik kelinglar jo'ralar, o'rtoqlar,

Xayfkim, axli tamiz ushbu zamonda xor ekan,

Oldilar har yerda bulbul oshiyonin zoglar.

Tobakay mundog' malomat kunjida doim Muqim.

Bu zamon kuz tutgin emdi senga bo'lsin tog'lar.

Mux'yo - Ey, Muqimiy bu avom xalqni sening g'azallaringni qo'shiq qilib qytib zavqlanishdan maxrum qilishim kerak. Muqimiy to qalbingga nashtar sanchib, qalamingni sindirmaguncha, oromni bo'lmaydi oromim.

PARDA

Dodgox - Olimjon oqsoqolning o'z qizi ekanmi?

Mux'yo - Xa, o'z qizi.

Dodgox - Muqimiy bu qizni sevar ekanmi?

Mux'yo - Shogirdi bo'lsa ham keyinchalik oralarida muhabbat paydo bo'la boshlagan.

Dodgox - Muqimiy o'zi ozlik qilgandek qizlardan ham shoira chiqarmoqchi ekanda, Nomoz.

Nomoz - Labbay.

Dodgox - Chilim.

Mux'yo - Gap u nodiraiyi davronni shoira bo'lib yetishishida emas, unung naqadar go'zalligida. Va bu paripaykarga Muqimiy emas, o'zlari ega bo'lib, Muqimiydan alamzadalarining qasoslarini olib berishingizda.

Niyoz- Shoir Muqimiy bir qancha odamlar bilan kelib kirishga ruxsat so'raydi.

Dodgox - Kutib tura tursin.

Mux'yo - Kuzmich bilan Bozor meshkobni ozod qilinishini so'rab kelgan bo'ladi. Go'yo siz unung so'roviga muvofiq Kuzmich bilan Bozor meshkobni ozod qilgan bo'lasizk-u, keyin o'zini yolg'iz olib qolib,A, labbay?

Dodgox - Yaxshi.

Mux'yo - "Men chorbogda bo'laman, keyin ko'chadan kiraman.

Dodgox – Ma'qul. (Niyozga). Ayt, kirsin.

Muqimiy – Assalomu alaykum, janobi Dodgox.

Dodgox - Keling, xurmatli Muxammad Amin xo'ja Muqimiy.

Muqimiy - Janobi Dodgox, Kuzmich hakim bilan Bozor meshkobchini ozod qilinishini so'rab kelgan edim.

Dodgox - Bularni ovora qilmasdan, bir o'zingiz kelganingiz ham inobatga o'tar edi-ku.

Muqimiy - Mendan ko'ra bu ikki kishini xalqqa manfaati ko'proq tegadi. Biri xalqqa suv keltirsa, biri hayot keltiradi.

Dodgox - Bularni ozod qiling, demoqchimisiz?

Muqimiy – Shunday janobi Dodgox.

Dodgox- Yaxshi. Nomoz, Niyoz. Kuzmich bilan Bozor meshkobchini bo'shatib yubor.

Nomoz – Xo'p. (Mirshablar Bozor bilan Kuzmichni olib chiqadilar).

Muqimiy - Raxmat.

Dodgox – Mavlono Muqimiy, ketmang, gap bor.

Muqimiy – Xo'p. (Ularga). Xozir yetib boraman. (Dodgoxga),xizmat janobi Dodgox.

Dodgox – Sizga xizmat buyursak ayb bo'ladi-yu, bir hayrli ishga bosh qo'shing demoqchi edim.

Muqimiy – Elu – yurt qatori xizmatga ham tayyorman.

Dodgox- To'y qilmoqchiman. Tag'in yurtga osh tortib orzu xavas ushatmoqchiman.

Muqimiy – Qutlug’ niyat.

Dodgox – Toy ustida xoji Mux’yo ikkalalaringiz bo’lasizlar. Yana uylanmoqchiman.

Muqimiy – Men janoblari qiz chiqaradilar, yoki o’g’il uylantiradilar deb hayol qilgan ekanman.

Dodgoh – Xusnu-maloxatda, aqlu-farosatda Xukkanda yagona bo’lgan bir nozanini shoira qizga orqavarang ishqim tushib qolib desangiz, shunga kishi qo’ymoqchi edim . . .

Muqimiy – Kim ekan,,.

Dodgox – Borsangiz banoras to’n kiyib qaytasiz. Bizga qaynata bo’luvchi kishi, mashxur ustakorlardan, vofurushlik rastasining oqsaqoli usta Olimjon. O’zingiz ham yaxshi tanirsiz...

Muqimiy – Taniyman... Naxotki...

Dodgox - Naxotkingiz nimasi... Xo’sh...

Muqimiy – Naxotki siz uchun bu shaxardan bu qizdan boshqa baxtsiz qiz topilmagan bo’lsa?!

Dodgox – Xoxxo... Tozza odamni topib, sovchilikka yubormoqchi bo’lgan ekanman-ku.

Muqimiy – Bas... Janob Dodgox, bas ...

Dodgox- (Po’pisa bilan) Xushingiz boshingizga to’plab, ko’zingizni kattaroq ochib qarangchi, Qarshingizda kim turipti-yu, kim bilan gaplashayotibsiz. Sovchilikka borasizmi, yo’qmi?

Muqimiy – Yo’q bormayman. Kaminada bunday ishlarga layoqat yo’q.

Dodgox – So’z qaytarishga sizga kim huquq berdi.

Muqimiy - Insof, vijdon va andisha.

Dodgox - Safsata sotmang, Sovchilikka borasiz dedim-borasiz. Gap tamom.

Muqimiy – Yo’q...

Gul g’uncha oyoq ostida xor ulmasa derman

Gul faslida ofatga duchor ulmasa derman,

Ul qiz oqizib ikki kiyik ko'zlaridan yosh,

Sayyod o'qidan ko'ksi fig'or ulmasa derman.

Dodgox - To'xtating, diydiyoingizni. Bu yer podsholik maxkamasi. Mening farmonim podsholik farmoni ekanligini unutib qo'yganga o'xshaysiz. Mavlono Muqimiy. (Mux'yo kirib keladi, unga). Xojim, podsholigim farmonini bu kishiga tushuntirib qo'ying, shoirman deb, ashula yozib yuravergan ekanlar.

Mux'yo - Podsholik farmonidanbosh toavlash, shariat gunoxi azim, qonunan jinoyatdir. (Dodgoxga) . Biror kishi farmondan bosh tovlayaptimi, janob Dodgox...

Muqimiy - (Nafrat bilan). Men bosh tovladim... men...

Mux'yo - A nima... Tushingan kishi-ya. Sizga fitna ta'lim bergan Kuzmich, podsholik qonunlarini tushuntirmagan ekanda... a...

Muqimiy - Fitna dedingizmi, xoji afandim. (Tik qarab) Kishilar fitna- fasod urug'ini o'zlari sochib sofdil kishilarga to'nkashni kasb qilyaptilar. Na qadar razillik.

Mux'yo – Janob Dodgox, eshityapsizmi...

Dodgox - Meni g'azabiga duch kelmay juda erkanib ketibsiz, movlono Muqimiy.

Muqimiy - Biroz o'z g'azali bilan mashhur bo'lsa, birov o'z g'azali bilan mashhur.

Dodgox - Quvg'indi Kuzmichni yoqlab, qo'llab-qo'ltiqlab, xurmatli xoji afandining izzat nafslariga chang solishingiz yaxshimi?...

Muqimiy- Xurmatli Kuzmich, o'z vatanidan quvg'in qilingandir. Lekin men u kishini ulug' ma'rifatparvar, siynasi pok, mexribon kishi deb tanib, do'stlashdim va bu ajoyib inson menga xaqiqatdan dars berib, qalamimni sayqalladi yana ham xalqqa yaqinroq bo'lishimga yo'l ko'rsatdi.

Muqimiy – Ustoz bo'lishimga munosib kishi. Men bu daryodil, Otashin mexr xalqning yaxshi xislatlaridan qanday qilib kuz yumishim mumkin.

Mux'yo - Bu e'tiqodlaringiz musulmon shoirman deb yurgan kishiga yarasharmikan, Mavlono Muqimiy.Xalq sizni tosh bo'ron qilmasa deb, qo'rqaman.

Muqimiy - Xalqning g'azabi, tosh bo'rondan qo'rqinchliroqdir.

Bundan ixtiyot bo'lishingizni sizga tavsiya qilar edim, janob afandim.

Dodgox – (baqirdi) . O'ylab gapiring, movlono Muqimiy, qamab qo'yishim mumkin.

Muqimiy - Tor yer to'langizga qaysi birimiz sig'amiz.

Dodgox – Bu nima deganingiz?

Muqimiy - Men o'zimni xalqqa qo'shib atayapman.

Dodgox – Astaxfirillo. . . Nomoz ...

Nomoz – Labbay

(Nomozni tusib xalq kirdi)

Mux'yo – Ey, . . eye ...eye... Bu nima deganingiz... Aybga iqror bo'lishning o'rniga...

Nomoz - (Qamchi o'ynatib kurinib) Farmoningizga xozirman janob Dodgox...

Muqimiy - Ta'nadan bitdi qulog', sabri tugab, qiynaldi jon,
Muncha nayranglarni sizdan kutmagandim hech qachon
Javrini jonga qadab, zoxirda ko'zga oshiyon,
Vaajab boyqush uchun bo'lganda gulshan oshiyon,
Qaydadir bullulligimkim, maskani vayronaman.
Qaysi kun keldim jaxonga qayg'uga bo'ldi duchor,
Ko'za sindirgan azizu suv keltirgan xor-zor.
Zulmu xaqsizlik kurib, dunyo ko'zimga tangu tor,
Men Muqimiyga nasixat etmang e axli kibor.
Zulm ila to'lg'ansa el, men el bilan to'lg'anaman.

(Muqimiy monologi davomida xalq yopirilib kirib, Muqimiyni o'rab oldi).

IKKINCHI PARDA

To'rtinchi ko'rinish

- - - - -

RISOLATCHEVARNING XOVLISI.

Risolat - (Oshxonadan dasta kosa, chinni ko'tarib chiqdi).

Men, osh-xamirimni yugurib olganimcha, siz bularni to'yxonaga
olib chiqib, go'shtni chopib bering bolam.

Obida ham hademay kelib qolar.

Tojiniso - Xo'p ayajon. (Kosani olib qo'shni xovliga o'tdi).

Risolat - Kelinim tushmagur. Yosh bo'lmasa, qo'shni xovlida to'y mening
shoshganimni ko'rib turib, chok tikib o'tirarmidi.

Xayr, mayli, xali yoshda-yosh. (Yig'ishtirib turib edi. Ko'cha eshik qoqildi).
Xozir ... xozir...

Ofarin - (Ko'chadan) Aya...

Risolat - (Eshik ochishga shoshib). Voy, ayang o'rgilsin... Bolam kelib qoldi.
(Eshik ochdi). Ertadan beri ko'zim to'rt bo'lib ketdi, bolam. (Ofarin kirib,
paranjisini supaga otdi va o'zini Risolatning ko'ksiga otdi)

Xa . . . xa. . . Nima bo'ldi, senga... Ayasini sog'ingan, to'yga kelgan kishi
yig'lar ekanmi. Xar kelganingda o'ynab-kulib kirib kelar eding-ku. . .

Yo bir yering og'riyaptimi yo kichik ayang hafa qildimi?

Ofarin - (Supaga o'zini otib urib, qattiqroq yig'laydi).

Bag'ri tosh ota, o'gay onaning qo'lga topshirib qo'yganча yurgagligimda
bo'g'ib o'ldirganingiz yaxshi edi, ayajon . . .

Risolat – (Bosh ko'zini silab). Yaramga sen ham tuz sepma, jon qizim. Noinsof
otang meni sendan ajratib, yurak - bag'rimni uzib olib qolgani ham yetar. Birga
turadigan kunlar ham kelar.

Ofarin – (Savol bilan Risolatga qaradi.) Nimalar deyapsiz, ayajon. Birga
turadigan kunlarimiz yaqinlashayotgani yo'q, bolamlab yig'laydigan kunlaringiz
yaqinlashyapti .Ayajon ... Ayajon...

Risolat – Nima bo'ldi senga, Obida?

Ofarin - Menku juvormag bo'lib ketamanu, sizga qiyin bo'ladi Ayajon. . .

Risolat - Xa, shoirlarni kattasi xoji Mux'yo kelganmidi?

Ofarin - Keldi. Kelib, tun kiyib ketdi.

Risolat – (Xursand) Bo'ptida.

Ofarin - Nimasi bo'pti, nimaga xursand bo'lyapsiz. Aya?

Risolat – (Jilmayib). Nega xursand bo'lmay. Agar dadang “Meni qashshoq Muqimiya beradigan qizim yo'q degudek bo'lsa nima qilardik?

Ofarin – Ayajon ... Bechora ayajonim... (qattiq kuchib). Aldanibsiz, aldashibti. Mulakam uchun kelgani yo'q, Dodgox uchun sovchi bo'lib kelibti.

Risolat - A . . . Nima. . . (Qotganicha qoldi).

Ofarin - Faqat Mullakamga achinaman, u kishiga og'ir bo'ladi.

Mening iste'dodimni xazon bo'lishi uchun qattiq azob chekadilar.(o'zicha). U kishi so'nggi g'azalimni ko'zdan kechirib, o'zimga qaytarayotkanlarida g'azal xashiyasiga shunday deb yozdilar:

“Tasanno, daxr uchun sendek necha aqli raso darkor,

Fasoxat kishvariga xo'sh qalam Zebiniso darkor ...”

Axir, kamolatda mening davr Zebini osi bo'lishimga tavajjix qilgan ustozga, sizdan ko'ra ko'proq achinaman, ayajon. Uch xotin ustiga, keksa ayiqdek dodgoxga.

Risolat - (sapchib turib paranjini oldi). Xozir boraman, dod, solaman, qarg'ab, daxmani boshimga ko'taraman. Men boraman. Bu shaxarda dodimni hech kim eshitmasa, undan kattaroq maxkama bordir...(Yig'laydi) Qilib-qilib, nima qilib qo'ydim...

Ofarin - Ayajon, men to'yga kelganman. O'rtog'im Oyshahonning to'yiga keldim, meni qizlarning yoniga, bazm bo'layotgan uyga olib chiqing.

Risolat - Kambag'al kosibning zurga etishgan to'yini azaga aylantirmaylik. Yo'q, to'yga chiqmaymiz.

Ofarin - (Yana qattiq kuldi). To'y... Toy... (Uylanib). To'g'ri,

Aytasiz aya... Men chiqsam, azaga aylanishi turgan gap. Bu baxtsizlik yolg'iz mening boshimda bo'lsa mayli edi, ko'chilik qizlarning boshida bor.

Tojiniso – (Qo'shni xovlidan chiqib). Iye- iye Obidaxon keptilarku. O, o'rtog'jon (turgan yerida ro'mol yozib, soddagina tiz bukdi. So'ng yugurib kelib, Ofarinni quchoqladi). Keling o'rtoq, Ayam bilan ertadan beri ko'cha poylaymiz Shundaymi aya.

Risolat - (asta) Shunday... (Oshxonaga kirib ketdi).

Tojiniso- Bir uy qizu - kelinchaklar yig'ilishgan ekan, ushlab qolishdi.(Risolat so'ng Ofaringga razm solib, bularni hafa kurgach, kokilning uchini tishladi.

Ofarin - Usta Ubaydulla akam yaxshimilar?

Tojiniso – Shukur . . . Xademay kelib qoladilar. Usma ezib beray, siz kuyganingizcha men darrov kiymani qilib berib, sizni boshlab chiqaman. Biram o'yinchi, biram qo'shiqchi qizlar...

Ofarin – (zo'raki kulib). Siz ishingizni qilavering, o'smani keyin qo'yaveramiz. Mumkin bo'lsa Tojinisoxon, siz menga Ubaydulla akamning she'r daftarlarini olib chiqib bersangiz, uqib o'tirar edim.

Tojiniso – Jonim bilan. (Ayvonga ko'rpacha solib, dutor va ikkita qalin daftar ko'tarib chiqdi). Qaysiligini bilolmadim.

Ofarin – Raxmat.(daftarlarini varaqlashga kirishadi, Tojiniso oshhonaga kirdi. O'zicha). Bu mulla akamning tansiq oshkor bo'lmagan kul yozmalariga o'xshaydiku...(daftarning bittasini varaqlay boshladi, ichida uqib, intiqdi, xolatga kirdi, bittasiga so'z tikilgancha koldi so'ng shu she'rini o'pib kuylaydi).

Ariya

Ey yor gamgizor, tasaddukingdan ketay,

Ko'p bo'ldim intizor, tasddudingan ketay.

Xajringdan yig'ladim, chunon, kon yoshim bilan

Dasht uldi lolazor, tasaddukingdan ketay,

Ko'pdir jaxonda dilbaru dildoru dilbaro,

Qilmasman e'tibor, tasddukinang ketay,

Ey koshki, bo'lsa edi baxtu davlatim,
Qilsam senga nisor, tavaddukinin ketay,
Xayfiki, kambag'almanu sarf etgudek senga
Ilgimda yo'q mador, tasaddukinin ketay.

(O'pib, yana shoshib varaqladi, bir gazalni qattiq uqidi: shu payt Risolat oshxonadan ayog' uchida chiqib, qo'shni xovliga o'tib ketdi. Ofarin buni sezmay, she'rni o'qidi),

Javrlar ko'rdim falakdan, dilrabo ko'rsatmagay
Keldi to bo'g'zimga jonim, vasl to ko'rsatmagay.
Chaxri kajraftorning kaqjraqligidan qo'rqaman.
Bu balolar yetmagundek, bir balo ko'rsatmagay,
Xastalik eltdi vujudimni fanoga oxikim,
Xozikim vasliy muruvatdan shifo ko'rstamagay,
Talpinur ko'nglim visoliga shabi xijron aro.
Subxi sodik yetdi, xurshidim ziyo ko'rsatmagay,
Bir dami suxbat ko'rolmay, yordam bo'lmoq judo.

Bu o'limdan ham og'irroqdir... (she'rni ko'ksiga bosib, ko'zlarini yumdi va o'zicha) Xudo ko'rsatmagay. Ey ustoz mening boshimga tushgan bu, o'limdan ham og'irroq kulfatdan xabardorga o'xshaysiz. (Ofarin o'zi yolg'iz allakim bilan so'zlashagandek, so'zini davom ettirdi. To'yga kelgan qizlar oyoq uchida kirib, quloq soladilar) (qizlar orqadan kelib yaqinlashib, borabariga kulib yuboradilar. Ofarin xushini to'plab, qo'lidagi she'rini ko'krigiga bosganicha o'tirib oldi, qizlar o'rab oldilar).

DUET

Qizlar - Xush kelibsiz, ajab maexmon ekansiz.

Xushro'ylikda siz bir jaxon ekansiz.

Ofarin- Xushvaqt bo'ling, umringizda dard ko'rmay,

Davron suring, shodu xandon ekansiz.

Qizlar- Qushingiz dardu xasrat, dog, armon

Tug'ilganga ming pushaymon ekansiz.

Ofarin - So'zlaringiz yengillatar dardimni,

Yuraginga go'yo darmon ekansiz.

Qizlar - Ofarin deb, siz yozibsiz, biz aytdik,

Endi bilsak, Obidahon ekansiz.

Ofarinning yo'q - desak biz armoni

Bizdan battar siz bag'ri qon ekansiz.

Ma'rifat- Tojinisoga qo'chqorday o'g'il bersin, omin obloxu akbar.

Tojiniso - Xush ko'rdik, qizlar.

Ma'rifat - Xushvaqt bo'ling, Obidaxon xozir keldilarmi?

Tojiniso - Men chiqsam, kelib ultirgan ekanlar. Qani, nonga qaranglar.

Latofat - Obidaxon, kelibdilarmi, yoki ko'zimga o'n to'rt kunlik oy ko'rinayaptimi?

Obidaxon - Latofatxonmisiz, yoki qo'shni xovlidan oftob ko'rindimi?

Latofat - obidaxon siz kelmay turib, bazmimiz o't olmay turgan edi. Mana bu dutorni olib, bir ashula aytib bering. O'ynagan-kulganimiz qoladi. Yana shunaqa tuplanishaolasizmi, yo'qmi?

Obidaxon – Men chalay, qizlar yo'nasinlr. Xammamiz qo'shilib aytaylik.

Xamma - Tor xovlida katta tol

Soya solaman deydi.

Buvam tengkur keksa chol

Seni olaman deydi.

Sochpopiging uchida

Suv munchog'I bir shoda.

Yig'lamagan qiz bormi,

Shu bevafo dunyoda.

Uchog' boshida qumg'on atrofi baland qo'rg'on

Ko'ngil bergan yorimni qurolmasdan men xayron

Qizlar - Ayting. O'rtog' o'rgilay. (Urab boshlarini siladilar).

Latofatxon - Oshkor ulgay sirimni aytib bering. O'rtog'jon (dutorni berdi)
o'shanga o'ynagim kelayotibti.

Ofarin - (dutor chertib turib).

ARIYA

OSHKOR Oshkor ulay sirim, xolim bayon

Aylay desam,

Tor ko'nglim singdirolmaydur Nixon

Aylay desam.

Bu bahor, birdab dariga ta'lim

Yor o'lmadi.

Ushlashib ko'l, sayri-bog'u- bo'ston

Aylay desam.

Ishq, shartidan emas, sirri muxabbat

Bo'lsa fosh,

Qo'rqaman, ko'zdan ravon

Aylay desam.

Mening shovqim bo'lur ming istixola

Xalqdir,

Gul yuzim urganda bulbuldek figon aylay desam.

Joy oliy urniga bir kulban tarik-u

Tagi,

Xayfkim, ham yo'q takalluf, mexmon

Aylay desam.

Naylayin sayd uldi xoling donasiga jon

Kushi,

Bir boqib, xusning Muqimiy imtixon aylay desam.

(Bu ashiula va o'yin davomida ko'zlar qaygiga botgan edilar, sukunatni,
obidaning so'zi yordi).

Ofarin - Xammamiz ham... Xammamiz ham... (Qizlar yarq etib qaradilar)
O'z ixtiyori o'zida bo'lmagan qizlarmiz. Bu zamonning xoxishi qatordagi ne-ne
qizlarni

Xuddi kalxat kaptarni yutkandek bolu-parini yulib ketayotibdi.

Latofat - Voey! (seskani). Qiz tug'ilmay o'lay. Shularni o'ylasam, kechalarni
tong otdiraman. (Obidaning yoniga kirib). Bizdan yashirmang, jon o'rtog'jon.

Siz kimni yaxshi ko'rar edingiz-ku, dadangiz kimga bermoqchilar?

Qizlar - Ayting. . .

ARIYA

Ofarin - Bulbuli shuriydadan ayru tushib bog' ichra gul,

Yo shirin qon yig'lagay xarxolda yaprog' gul.

Oftobdan yirik tushgan chamandan xol sur.

Bo'lmayin fasli xazon, bosh qo'ysa tuprog' ichra gul

Ol xabar gulshanda gul axvolidan e bog'bon.

Yot giyox chirmoviga chirmandi, qiynog' ichra gul.

Nola chekmay unda bulbul ham na qilsin, Ofarin.

Bunda doim bag'ri kondirkim, kolib zog ichra gul.

(ariyadan so'ng, muxbatni jim-jimlik bosdi, bu jim-jitlikni

Ko'cha eshigining qoqilgani buzdi).

Tojiniso - Xo, labbay! Mana, xozir! (Borib eshikni ochib mo'ralaydi, ochdi, borib mo'ralagan Magrifat chopib keldi).

Magtifat - Voy o'lmasam! Usta Ubayjon akam ekanlar!(qizlar duv quzg'oldilar. Ro'molda yuzlarini to'sib, qo'shni xovliga o'tdilar. Obidaxon xovli o'rtasida, kirgan Ubaydullaga salom berdi).

Ubaydulla – Keling singlim. . .(shoxini Tojinisoga berib) To'yonangiz. . .

Ofarin - Kelgan edim. To'y baxonasi bilan.

Ubaydulla - Mulla aka ham kelmoqchi edilar, kishilar kelib xujrada ushlanib qoldilar.

Ofarin - Kelmaydilarmi?

Ubaydulla - (kulimsidi). Xozir keladilar. (Oshxonaga bo'ylab, Tojinisoga). Ayam qanilar? Ko'rinmaydilar!

Tojiniso - To'yxonaga o'tdilar shekillik. . . Aytib chiqaymi?

Ubaydulla - Yaxshi bular edi. (Tojiniso chiqdi Ofaringa) Siz, ham to'y xonaga chiqishga shoshilayotganga o'xshaysiz-a? Obidaxon?

Ofarin – Xa! . . (Yerga qarab).

Tojiniso - (qaytib kirdi). Paranji qo'ltiqlab, kucha chiqib kelayotganlarni xoloyim ko'rgan ekanlar.

Ubaydulla – Taajjub. (Ofaringa) O'rtog'laringiz kutib qolishmasin.

(Tojinisoga). Mayli, chiqib, to'yni qizitinglar, bo'lmasa.

Ofarin - (chiqib ketaturib, bir qog'oz uzatadi). Mulla aka kelsalar, berib qo'yarsiz...

Ubaydulla – Xo'p, jonim bilan. Bu sizning yangi ijod qilgan g'azallaringizdan bo'lsa kerak.

Ofarin – Shunday. Eng so'nggi, eng oxiri mashkim, yashnab, kamol topayaptiku. Obidaxon bu nima deganingiz?

(Ofarin rashqariga chiqadi, Ubaydulla qo'lidagi qog'ozni xayajon bilan o'qiydi).

Daryoyi suzi ravon Muqimiy,
Xalq ichra shirin zabon Muqimiy,
Bechora, fakir xalq umidi:
Bul daxrda sen omon, Muqimiy.
She'riy chamanning bu jon qushiga
Ko'ngilda sening haqiqiy mexring,
Sensiz ne kerak bu jon Muqimiy.
Gar o'lsa, bu shurli Ofaringa
Yoz qisqacha doston, Muqimiy.

Ubaydulla- Ofarin, Sheriyatda kamolga yetib qolibsan, singlim. (Ko'cha eshigi chertiladi, Muqimiy kiradi). E, keeling, mulla aka. Juda xayallab qoldingiz?

Muqimiy - Kuyovga uzatilayotgan qiz, marxum usta Ergashning qizi bo'lsa kerak.

Ubaydulla - Shunday. Ayam bo'lib, ustaning hechkim yo'q shogirdiga beryapti.

Muqimiy – Tasanno. Qizlar bazmini Mulla Obidcha ko'p jon kuydirib maqtaydi. Men ham o'z bilganimcha tasovur etib yuribman.

Ubaydulla – Kechikib keldingiz mulla aka. Siz tasavvur etgan qizlar bazmi shu yerda davom etgan ekan, men ham, Obidaxon ham shu to'yga kelgan. Mana bu she'rni sizga atagan ekan.

Muqimiy – Gar o'lsa bu shurli Ofaringa

Yoz qisqacha doston Muqimiy.

Bechora baxtsiz shoir. Sening iste'dod nixolingni tagi-tomiri bilan yulib tashlamoqchi bo'lganliklari, aniqqqa o'xshaydi. (Ko'chada Risolatchevar kuylab yaqinlashdi).

Ariya

Risalat – Yomg'ir emas, o'z xoliga zor yig'ladi olam,

Olam to'lib guldiradi ox ila nolam:

Devona bo'libman.

(Ubaydulla chevarni yetaklab kiradi)

Kezdim ko'chayu ko'yni bukun bedilu bexush

Boshimga qo'nib, kuydi uya bir- ikki boyqush:

Vayrona bo'libman,

Xayrona bo'libman.

Yoqqanda balo toshi, ximoyangda xamisha,

Sheringda mukim, maqasadi soyangda hamisha.

Farg'ona bo'libman,

Xam ona bo'libman.

O'g'lim sen uchun qaygiga xamxona bo'libman.

Muqimiy - (Iztirobda). Chevar aya... Sizga nima bo'ldi?

Ubaydulla - Ayting. Sizni kim xafa qildi?

Risolat - (Aytolmay qiynalib). Soddadil qilib...

Ubaydulla - Soddalik qilib deysizmi. Jon aya, nima gap o'zi?

Risolat - Tilim kesilsin, pishmagan boshim tosh ostida yanchilsin.
Aytolmayman. Do'st bilib dushmanga sir aytib qo'ydim...

(Yig'lab, uyga kirdi. Ubaydulla suyab olib kirib ketdi).

Ubaydulla - Ayajon, siz sir aytgan dushman kim o'zi? (kirib ketadilar).

Muqimiy - Evox, bu qanday ko'rgulik. . . O'g'lim sen uchun, qaygiga xamxona bo'libman. . . O'zimga kifoya qilar edi, chevarga ham nashtar o'rganga o'xshaydilar. Olam o'zi turma bo'lgandan keyin, uning qaysi burchagiga bormay, ko'ngil bechora bu yerda ham turma deb, meni ogoxlantiradi. (O'tirib, keyin daftariga yoza boshlaydi).

Oxikim, afsus emas, hech ishda raxbar toliim.

(qolganini so'zsiz yozaboshlaydi. Tojiniso kosada "mastava" ko'tarib chiqib, Muqimiyni ko'rib qaytdi bir ozdan keyin yolg'iz Ofarin ko'rinib,oyoq uchida Muqimiyga yaqinroq keladi).

Ofarin – Salom.

Muqimiy - (Ko'rib shoshdi, sapchib turdi). Vaalaykum assalom. . .
Yuzlaring, bu she'r bilan to'lgan kitobimdir mening

Ko'zlaring har boqishi, yuz iztirobimdir mening

Ofarin – Sochlarim boshda parishondir hayolimdek hardam

Kiprigimda tomchilar bexad xisobimdir mening.

Muqimiy - Ayрилиqda bu achchig'-u, baxtim qaro,

Qon sharob ichsam, jigarlardan kabobimdir mening

Ofarin - Menga sanchilgan tikan, albatta sizga sanchilur

Cheksangiz siz gar azob, chekkan azobimdir mening.

Muqimiy – So'rasangiz holing nechukdir deb, agar ey Ofarin

G'ussali har satr she'r yozgan javobimdir mening.

Ofarin - (Yig'lab). Jon ustoz. Meni kalxatning changalidan xalos qiling.
Рфнщень jar labida, madad qiling.

Muqimiy - Nima gab bo'ldi? Ayting!

Ofarin - Sovchi keldi. . . Meni . . .

Muqimiy - Jabru –jafolariki, etar menga damba-dam,

Ranj uzra ranj ko'rdim, alam uzra alam,

Daftar kilurga, bitkali ojiz erur qalam.

Kundan-kun osha botsa sitam, bu nechuk sitam,

Bechora bu Muqimiy gulomingga, ofarin.

Ofarin - Bukun siz aytkan ushal Ofarin emas, ustoz.

Musiybat ostida rost komati duto ko'rinur.

(Darvozaga yugurdi so'ng orqasiga qarab, to'xtadi)

Musibat ostida rost komati duto ko'rinur.

(Tez chiqib ketdi. Muqimiy uning orqasidan borib kuzatib qoldi).

Muqimiy - O f a r I n !!!

Parda

Polvon - Qani ey, mulla Asqarali, Xajvixonlikni bo'shatmang.

Asqarali - Quloq solinglarchi, dodgox to'g'risida shoir Muqimiy nima deptilar.

(Dexqonlar joylashib o'tirib oladilar).

(Asqarali "Tuf" ge'rini aytib bo'lgach, yana mana bu she'rni o'qiydi).

Dodgoxim, dodgoxlik senga xos,

Porasiz, o'tmas senga yuz iltimos.

Uchrashar shagdam, movut tunli kishi,

O'ylashib, so'ng uchrashar yirtiq libos

Dodgox, shopu kamar kamlik qilur

Xalq tavqi la'natin bo'yningga os.

Xomrayib, yer ostindan kulga qarar,

Sen qolib, muzdan sovuq mirzang Giyos.

Men Muqimiyga ajal kelmay turib,

Ey, xudo, mingboshidan qilgin, xolos.

Sarviniso - Shallaqi tanobchi xo'jalardan dod...

Polvon - O'zi nima gap. Savri, gapirsangchi...

Sarviniso - Polvon qani deb, qo'rg'onga kirdi. Yo'q, akam dalada desam, yolg'on aytsam, shu yerga yashiringan, top dep, boshimga qamchilab ketdi. Ana shu tomonga kelyapti.

Polvon - O, zangarey, uni qaranga.

Asqarali - Ey, Mulla aka, xira pashshalar kelyaptilar...

Sultonxo'ja - Xoxxo... Kovun sayil-ku. Assalomu alaykum, yaxshilar.

Xoda yutganmisan.

Polvon - Ey, nima bu qilganingiz.

Qani, o'tiring xo'jam.

Sultonxo'ja - O'tirishga fursat yo'q. Sen bilan yer ustiga borishimiz kerak.

Polvon - Yaqinda o'lchagan edilaringiz-ku. Tag'in nima balo bo'ldi.

Xakimjon - Pshsholikning topshirig'i.

Obidcha - O'lchang bo'lsa – bular. Bir payola choy iching, xo'jam.

(choy uzatadi).

Sultonxo'ja - Bu yalangoyoq chorakorlar poshsholikdan qo'rqmay, yer yashirishadi. Ulponni vaqtida to'lashmaydi, xo'jayindan bunaqa pul ko'tarib olib, qarzni to'lashga muttaxamlilik qilishadi.

Xakimjon - Mexmonga bo'ladigan sarf o'rniga, qarzni to'lasin.

Sultonxo'ja - X anima keragi bor?

Ismoilko'sa - Nay chalib beraymi, Sultonali...

Muxammadjon - Yallaga tobingiz qalay, Sultonxoja eshon.

Ubaydulla - G'alati xajvi she'rlar o'qib bersam, biroz pasroqqa tushasizmi?
Xakimjon xo'ja, - xo'ja eshon.

Chol - Juda ham sur pashshalar ekan.

Obidcha - Xali yo'q edi. Bu zormandalar xaligi garmsar bilan keldi.
Pashshalamay o'lgurlar... (kulgilar).

Gofurjon - Pashshalashib o'tirmay, bir narsa deylik bo'lmasa.

Sultonxo'ja - Turatur uka. Avval, poshsholik ishlarini bartaraf qilib olaylik.

Xakimjon - Yallani shaxarda ham eshitaveramiz.

Muqimiy - Iloji bo'lsa, shaxarda ham eshitganlaringiz ma'qul.

Sultonxo'ja - Nega unday deysiz. Shoir Muqimiy. Biz odam emasmi?

Muqimiy - Sizlar, tanobchi xo'jalar.

Sultonxo'ja - To'xtang... Bizni masxara qilishga kimning xaqi bor...

Xakimjon - Kimni masxara qilyapsiz, Bilasizmi, biz kim?

Sultonxo'ja - Desamki ko'zingizga kal jo'jaman.

Makdumay a'zammanu xo'jaman.

Otamizi otasi shoxlik mozor.

Muxlisimiz mardumi axli diyor...

Matxolik - O, aylanib ketay, pirlarimdan bizga xo'p sovuqmijoz nevaralar qoldirib ketibsizlar-da.

Xakimjon - Xam yana Erxubbi bularlar tog'a.

Ammamizni erlari Nur ota.

Bibi Ubayda bo'lurlar xolamiz.

Matxolik - Yo'q. Ammangiz...

Sultonxo'ja - Xo'ja Turob bizga edi otboqar.

Polvon - Maxtanishingizni to'xtating xo'jam. Mexmonlarni xoli qo'ying.

Sultonxo'ja - Gapning qisqasi, qolgan ikki tanob eringni poshsholikni amri bilan, xox ko'n, xox ko'nma, Ashurboyga vosiyka qilib o'tkazamiz. Senga, boy Sultonbayozdagi yeridan beradi. Tur, yeringa boshla.

Polvon - Poshsholikni amri deb, ikki tanob yerimni tortib oldilaring. Endi bunisi chiqtimi, noinsoflar.

Muqimiy - Qizimizsiz, Sultonxo'ja, suvlik, xosillik yerini boyga berib, bu kambag'al Sultonbayozda-kumlikda nima tirikchilik qiladi. Shu ham gap bo'ptimi?

Polvon - Xech qayoqqa bormayman. Qo'lingdan kelsa, osivor, yalagxo'rlar.

Sultonxo'ja - Tiling chiqib qoptimi. Yalang oyoq, chuvrindi.

(Qamchilay boshladi, Muqimiy Sultonxo'janing qo'lini tutdi. Kuzmich qamchini tortib oldi).

Muqimiy - Maksim . . . Bu bechora xayvon emas, inson-ku, Qo'ling singurlar, "haq so'zni gapirding, chekding ko'p ozor,

Kim fazo egasi, shuning uchun xor.

Don ekkan chorakor bir nonga muxtoj.

Xam paxta ekaning o'zi yalong'och.

Kosiblar, ish tukib, ochu-bechapon.

Sozanda sozida gir'ya-yu afgon

Dardga dard ulandi, g'amga g'am payvand,

Qishloq ham tor ekan, tor desam Xikand.

(Jim-jitlikni yorib o'rta qiqqan Kuzmich qamchiga tikildi).

Kuzmich - Bu qamchi rus dexqonlarini krepostnoy qullik kishaniga solishga ham xizmat qilib keldi. Bugun bu yerda sizning qulingiz bilan o'zbek dexqonlarining gunoxsiz boshlarida o'ynamoqda. Katta yer egalarining manfaatiga xizmat qilmoqda. Bunday qamchilarni o'tga tashlash vaqti ham kelib qolar. . .

Sultonxo'ja - Gapingiz shuginami.

Kuzmich - Shu. . .

Sultonxo'ja - Sizlar, bilan o'sha menga qamchini berib qo'ygan poshsholik maxkamasi gaplashadi.

(Xakimjon bilan ikkovi chiqib ketadi).

Kuzmich - (Sukunatni yorib)

Na qadar daxshatdir bu xollar, xayxot.

Bir osmon ostida ikki xil xayot.

Ozlarning qilmishi nayrangu ozor,

Ko'plarining turmushi nachor, nonga zor. . .

(Polvonni ko'ksiga bosib).

Xafa bo'lma do'stim, xafa bo'lma.

Muqimiy - Biri ekib, pishirar, xosili birovlariga,

Mingida mexnatu ranj, bittasi xalovatda.

Birining qamchisidan qon tomar g'azablansa,

Ko'ringki, ko'pchiligi zulmatu asoratda.

XAMMA -

XO'R

Xaroba qishlog'u tor kulbada faqir dexqon

Shaxarda yer egasi muxtasham imoratda.

Muqimiy qaysi birin aytasiz, umr yetsa,

Mumoyasiz kishilar ko'p erur nixoyatda.

PARDA

To'rtinchi Parda

Oltinchi ko'rinish

Muqimiy shaxarda. Do'sti Obidchaning mexmonxonasida kasal bo'lib, endi tuzala boshlagan, ayvonda yastiqclariga suyanib, Zavqiy Furqat xatinig oxirgi bandlarini o'qimoqda, mulla Abdulla poygada choy qo'yib, ixlos bilan tinglamoqda).

Ubaydulla - Mavlono Furqatdan maktub.

Muqimiy – O'qisinlar, o'qisinlar.

Ubaydulla - Duoi salomdan so'ng bitibdilarkim.

...keldim o'z yurtimga davol darmiyon,

Bulbuldek, Yorkentga ko'dim oshiyon.

Xindlarning danosi, faylasuf shoir,

Vatandan badarg'a, mendek musofir,

Ingliz zulmidan bezgan Tajalliy

Men bilan uchrashib, topdi tasalli.

“-Mast she'ri Furqatimu, sarxush az axloqi u,

E Tajalliy, bodai mo, juz gulob omiz nest . . .”

Vatanim ko’zimdan ketmasdan nari,

Termuldim uzoqdan men Xukand sari.

(Muqimiy oldiga qo’ydi, Muqimiy chidamsiz to’lqinlanadi, xatni qo’lga olib, so’zlandi).

Muqimiy – Bechora Zokirjon. . .

Biroq, xatning o’qib, ortiq achindim.

Bezib bundan, qochib ketgan edingkim,

Duchor bo’lding borib, zulm daxshatiga.

Quloq solsam xatingning xasratiga:

Qilibsan kelganingga ming pushaymon,

Topolmapsan xanuz dardingga darmon.

Muqimiy bo’ldimu men bunda qoldim,

Goxi bor bo’ldinu goxi yo’qoldim,

Biyobonim menga go’yoki gulzor,

Oyoqqa botmagay bossam, tikanzor,

Qorong’u qishlarim ham navbaxorim,

Kechar har tarzida shomu naxorim.

Ajab emaski, kunlar boqsa bizga.

Erib qor, shildirab suv oqsa bizga.

Obidcha - Bir chimdim osh qildirsam, ishtaxa qalay mulla aka.

Muqimiy - Ortiq jonsarakligingiz kishini xijolatga qo’yadi mulla Obidjon. Bugun negadir ko’ngul oynasini tashvish nafasi xiralantirib turipti.

(Mulla Abdulla poygada sabzi-piyoz archiy boshlaydi. Eshikni qoqib Makay bilan G’ofurjon kirib keladi, uning qo’lida tanbur).

Muxammadjon - Tuzukmisiz?

(so’rashdilar)

G'ofurjon - Isitmangiz qoldimi, mulla aka.

Muqimiy - Shukur. Bugun ancha yaxshiman. Mulla Obid yaxshi bo'lmaganimga ham qo'ymayaptilar. Do'stim Furqatdan kelgan xatni o'qib, yorilib keteyozgan edim, xo'p keldilaringiz.

Muxammadjon - Bizga ham Yorkentdan bir g'azal yuborgan ekanlar.

Muqimiy - Ajabo. Yoningizdami?

Muxammadjon - Yodga ham ko'chirdik. Mulla aka. (Tanburni oldi, sozlab, yallani aytadilar).

YALLA

Muxammadjon - Fig'on ul, pari simin zikandin ayrilib qoldim

Maloxat bog'ida sarvu sumondin ayrilib qoldim

Xati xol kokili mushki xutandan ayrilib qoldim

Takallum chog'ida shirin suxandek asr qoldim

Jununim qo'zg'adi, el ichra Majnundin batar bo'ldim.

Nigorim, Layli ruxsorimki, andin ayrilib qoldim,

Navo bulbul kabi, cheksam fig'on kumricha, ayb ermas.

Yuzi gul, qomqti sarvi chamandan ayrilib qoldim

Ichib zaxri g'amin, xijronda andog' talx kom o'ldim.

Takallum chog'ida

Kuyundek puya aylarman biyobonimda, qarorim yo'q,

Demay yor balki men Furqat vatanimdan ayrilib qoldim.

(Polvon kiradi)

Muqimiy - Polvon...

Polvon - Mulla aka. Sog'ayib qoldingizmi. (O'pkasi to'ldi, boshqa so'z ayto olmay, ko'zini artib, boshqalar bilan so'zsiz ko'rishdi).

Muqimiy - Tinchlikmi, do'stim?

Polvon - Tinchlik...

Muqimiy - Yo'q... Ayting. Yana qanday kulfatlar yetdi.

Polvon - Mingboshi avaqtg qamadi. Buvayda qozisi ustimdan hukm chiqarib, qolgan ikki tanob yerimdan ham Ashurboyga vasiyga qilib o'tkazdi. Bugun avaktadan qutuldimu, xuzuringizga yo'l soldim...

Mardikorishlayman yoki xammolik qilaman.

Muqimiy - Daxshat. (Asta). Muqimiy bilan Kuzmichni mexmon qilib, joy berganingiz uchun baloga qoldingiz, do'stim.

Obidcha - Shu mexmonxona sizniki polvon. Mulla aka tuzalغانlaridan keyin ko'chib kel;asiz, katta shaxarda bir tirikchilik o'tib ketar.

Polvon - Raxmat.

Ubaydulla - Paxta zavodlariga sizdek polvon ishchilar kerak. Xoxlasangiz, Temiryo'l ishga joylanishingiz mumkin. Mana, Bozorboy aka ham meshkobchilikni tashlab, Temir yo'lga qora ishga o'tdi.

Polvon - Xar qanday og'ir xizmat qo'limdan keladi. (Xijolat chekib). Shirin suxbatga xalal yetkizganim uchun...

Bozorboy - (Eshikni ochib, xafa shoshib kirdi). Salom.

Obidcha - Tinchlikmi, bozorboy. Xayallab qoldingiz?

Bozorboy - Ikki kundan beri sudya ostonasidan jilmay, natijasini poyladim. Bugun sudya yopiq xukm e'lon qildi. Kuzmichni...

Muqimiy - (Turib ketdi). Nima...

Bozorboy - Kuzmichni uzoq yerga badarg'a qilish haqidagi hukm e'lon qilindi... U kishini qurolli politsiya o'rab olib chiqdi, orqadan ergashib bordim.

Temir soyabonlik aravaga ro'para qildilar. Kuzmichning ko'zlari menga tushib, "mendan do'stlarga salom dedilar" men bo'lsam "sizni do'stlaringiz unutmaydilar" deb, baqirdim.

Muqimiy - Eyvox... Nimalarni eshitayotibman.

Obidcha - Bugun Asqarali ham qamoqqa olingan...

Muqimiy - Kishilikning taqdiri go'yo bir kishan

Uni zolimlarga topshirib qo'yilgan... Reza-reza un kabi charx osiyosidan so'ngak

Tangu tirik uldi olam ko'zga, monandi katak,
Daxr zoli urdi roxatlik ko'zim ichra namak,
Dastidan tushdi judolik o'rta, zolim falak,
Bekasi bexamdamu mazlumdirman, ayrilib.
Qolmadi men chekmagan ranju alam, ozordan.
Yotmagan bir zaxm yo'qdir, bosh ko'targan xordan,
Bo'lma do'stlar bexabar, men siynasi afgordan,
Telbadir ajrab Muqimiy, surma qoru bordan,
Safxai har g'ussaga markumdirmen, ayrilib.

Ubaydulla - (Ko'tarildi). Bu kunlar boshimizda bir saxob ulsa ajab ermas,
Munavvar zimnida bir oftob ulsa ajab ermas,
Bu davlat, suv yuzida bir xubob ulsa ajab ermas,
Ko'ringan suvratu asli ulsa ajab ermas.

Muqimiy- (Asta). Ochilsa pardalar, yuzda niqob ulsa ajab ermas...
Davom eting...

Ubaydulla - Nasimiy jonfizo, bemor tangqa e sabo yetkur,
Xazon, pajmurda bo'lganlarga sen obu xavo yetkur.
Quy endi biz bilan begonani, chin oshno yetkur.
Gadomiz, boshlar uzra soya solsin, bir xumo yetkur.
Mukarrardir, zamona inqilob ulsa ajab ermas.

Muqimiy - Muqarrardir, zamona inqilob ulsa ajab ermas, Raxmat uka. Bergan tarbiyamga ming martaba roziman, Zavqiy taxallusingizga munosib she'r bo'lgan.

Ubaydulla - Buni, xurmatli Kuzmich so'zlaridan ta'sirlanib yozgan edim.
(Ko'chadan, uzoqdan svistok eshitiladi. Ko'chaga chiqqan Obidcha kiradi).

Obidcha - Mulla aka. Ko'chada politsiyalar izg'ib yuribdi. Xaliroq tomorqa choorvoqqa joy qilsam, suxbatni o'sha yerda davom etdirdim.

Muxammadjon - Yaxshi maslaxat. (chiqadilar).

Ofarin -

Ariya

Kuychuvon qo'yingni bergin, boqayin,
Ko'z yoshimdan soy qilib, men oqayin.
Yech ko'lim ey baxt, agar sen boqmasang,
O't qilib oxim, vujudim yoqayin.
Zarga tuldi bilagim, zardobga to'ldi yuragim,

Muqimiy - Bersalar kaptar qanoting, qochasan,
Kun kabi o'ynab, ko'ngulni ochasan
Kechalar oy bilan roz aytishib,
Ofarinim senga ko'nglum ochaman
Zarga to'ldi bilagim, zardobga to'ldi yuragim.

(charx urib berib, o'zini Muqimiyning oyog'iga tashladi) Ustoz...

Muqimiy - (bir qo'lida qalbni changallab, majruxlik bilan sakrab turib, bir qo'lida Ofarinning yozik sochlarini siladi) – Ofarin. Men quvg'inda yurib, sizdan xabar ololmadim.

Ofarin - Xabarim bor ustoz. Sizga qiyin bo'ldi. Menga ham. Ertaga to'y. (yig'laydi). Endi ko'risholmaymiz. Siz bilan abadiy xayirlashgani keldim...

Muqimiy - (qattiq faryod chekdi).

Xaqiqat istaganlar bo'ldilar xor,
Kimki muttaxamdir, yurtga sarkor.
Kim elning qayg'usin chekdi, yutar qon,
Olib turdan o'rin igvoyu bo'xton.
O'zi donoyu pulsiz bo'sa, xordir.
Agar u faylasuf, bir nonga zordir.
Judolik, ayriliq, xijron zamoni,
Yurakda qatma-qat armon zamoni.

(Obid va boshqalar chiqadilar)

Obidcha - Mulla xoji Mux'yo, mirshablar kelib sizni so'rayapti.

Muqimiy - Yana qanday manfur qora niyat qildi-u.

Ofarin - Yo'q bormang! Ustoz chiqmang.

(Monolog davomida saxna aylandi, ko'cha, Risolat ko'cha eshikni qo'lochyozib to'sib Mux'yoga ichkariga kirishga yo'l bermas).

Mux'yo - Yo'limni to'sma deyman, padar la'nati. Sen kimsan o'zing.

Risolat - Endi tanimay qoldingizmi, xoji afandim. Xamma qilgilikni qilib qo'yib-a... Yo'q, yo'q, yo'l bermayman, Muqimiyning ko'zlari uchib turgani yo'q, kirmaysiz...

Mux'yo - Men Muqimiyga ustoz bo'laman. Kasal ekan, ko'rib ketishim kerak, tushunasanmi?

Risolat - Ko'rib ketishi kerak emish. Uni qarang... Shu axvolga solib qo'yib-a... Yo'qol, ko'zimga qonto'lib turibti, ko'zlaringni o'yib olaman, chaqirilmagan shum mexmon.

(Mux'yoga yopishadi, sallasini chuvaltirdi)

Mux'yo - Mirshablar... (svistoklar eshitiladi, xalq tuplana boshlaydi, politsiya kiradi) Jodigar kampirni ushlanglar. Poshsholikni, ulug'dodgoxni xaqorat qildi.

(Politsiyalar Risolatchevarni tutadilar, eshikni ochib Obidcha, Mukay, Gofirjon, Ubaydulla, Polvon, chiqadilar). Oxxo... Jamoat ham, Kuzmichning do'stlari to'planib, poshsholikka qarshi yashirin fitna majlisini qilayotgan bo'lsalaringiz keragu shuning uchun kampir yo'l bermagan ekan. Muqimiy qani?

Muqimiy - (chiqadi). Labbay xojim, (Turgan politsiyalarni ko'zdan kechirib) Mana endi o'zingizga munosib vazifa topib oilbsiz. Iskovchilik muborak bo'lsin.

Mux'yo - Men sizni notob deb eshitib, ko'rgali kelsamu, siz meni xaqorat qilsangiz. (Ofarin ichkaridan paranjilik yig'lab chiqib, o'zini Risolatga tashladi).

Xoxxo... Dodxonning qayliqlari Ofarin-ku endi tushinarlik. Uyalmaysizmi, Muxammad Amin xo'ja...

Muqimiy - Uyat dedingizmi, janob xojim...

Mux'yo - Uyatgina emas, jinoyat ustida qo'lga tushdingiz.

(Politsiya qaradi, politsiya hokim farmonini o'qib eshittirdi) Janob politsiya, farmonini o'qing.

Politsiya – Janob hokimning farmonlariga muvofiq, uch soat muxlat ichida, Kukond shaxri va uning atrof qishloqlaridan uzoq bir yerga shoir Muxammad Amin xo'ja Mirza o'g'li Muqimiyni umrbod badarg'a qilinsin.

(Muqimiyni xalq o'rab oldi).

Bozorboy - Bermaymiz, yubormaymiz, bu kishini bizdan judo qilolmaysiz.

Polvon - Xonavayron bo'lganimiz yetar. Endi yuragimizdan ham ajratmoqchimisiz.

Ubaydulla - (Mux'yoga g'azab bilan yaqin keldi). Ma'lum.

Kuzmichni boshiga yetding. Asqaralini qamatding.

Ofarinni baxtsiz qilding, endi navbat shoir Muqimiyga keldimi. Yo'q, Muqimiyni xalqdan judo qilolmaysan. Ket...

(Yaqin bordi, Mux'yo tistariladi, Mux'yo va politsiyalar bir chekada).

Muqimiy - Osmon to'lib, qora bulut kezmoqda,

Izg'irinlar yalangtushni ezmoqda.

Davlatmandlar qayda buni sezmoqda,

Kambag'alga chin qaxraton emasmi.

Qish ham o'tib, bahor kelgay, yoz kelgay,

Aso sinib, qo'limizga soz kelgay,

Muqimiyning she'riga pardoz kelgay,

She'r mazmuni doril-amon emasmi.

Do'stlarim, men ishonamanki, sizlar mening nomimni avlodga muqim qilishga vosita bo'lasiz. U avlod, mening yuragimda ushalmagan orzularimni, ro'yobga chiqara oladigan qudratli avlod bo'lishiga, aminman.

XO'R

Xalq - Xalqlar bu sha'mi xusningni yoqar suxbat aro

Uchmagay xargiz Muqim, sha'mi shabistoning sening

PARDA

Final